S.B. Makhmudov va A.R. Ismailovlarning fikriga ko'ra, samarali strategik boshqaruv aksiyadorlik jamiyatlarining o'z faoliyatini bozor sharoitlari, me'yoriy-huquqiy asoslar va investorlarning kutuvlariga moslashtirishini ta'minlaydi. Aksiyadorlar manfaatlari va moliyaviy ko'rsatkichlari qattiq nazorat qilinadigan kapital bozorida kuchli korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va korporativ shaffoflik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi[4].

R.V. Aguilera va boshqalarning tadqiqotlarida esa korporativ boshqaruvga tashkiliy yondashuv ishlab chiqilib, korporativ boshqaruvning samaradorligi va siyosati baholanadi. Korporativ boshqaruv amaliyotlari (masalan, direktorlar kengashi tuzilmasi, aksiyadorlar faolligi) va faoliyat natijalari o'rtasidagi universal bog'liqlikka e'tibor qaratiladi[5].

J.P. Walsh o'zining tadqiqotida korporativ boshqaruvning ichki, tashkiliy asosdagi mexanizmlari hamda tashqi, bozor asosidagi nazorat mexanizmlarini ko'rib chiqib, menejerlar va aksiyadorlarning turli manfaatlarini muvofiqlashtirish amaliyotlarini tahlil qiladi[6].

Awoyemi, Olanrewaju va boshqalarning tadqiqotlarida rahbarlik amaliyotlarini tashkiliy maqsadlar va manfaatdor tomonlarning talablariga moslashtirish muhimligi ta'kidlanadi. Boshqaruv strategiyalarini shakllantirishda madaniy va tegishli omillarning roli yoritilib, ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali korxonalarda operativ samaradorlikni oshirish, xodimlarning qanoatlanishini yaxshilash va barqaror o'sishga erishish imkoniyati ta'kidlanadi[7].

Ye.V. Rudyak o'zining tadqiqotiga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy mablag'larni jalb qilish, ijtimoiy ahamiyatga ega innovatsion dasturlar va investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda ko'p sonli shaxslarni mulkiy munosabatlarga jalb etish imkoniyatini beruvchi eng mashhur tashkiliy-huquqiy shakl hisoblanadi. Bozor munosabatlari yuqori samarador xo'jalik yuritish tuzilmasini shakllantirish, iqtisodiy rivojlanish darajalarini yaqinlashtirish va muvozanatlashtirishga qaratilgan turli iqtisodiy-huquqiy mexanizmlardan foydalanishni taqozo qilmoqda. Ushbu mexanizmlardan biri — yuridik shaxslarni reorganizatsiya qilish hisoblanadi[8].

I.V. Chicherovning fikriga ko'ra, iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya siyosatini optimallashtirish mavzusi bugungi kunda nafaqat raqamli texnologiyalar ahamiyatining ortishi, balki xorijiy davlatlar tomonidan joriy etilgan sanksiyalar tufayli biznes-modellarning transformatsiyasi bilan ham bog'liq holda alohida dolzarblik kasb etmoqda[9].

M. Patakyova o'zining tadqiqotida oddiy aksiyadorlik jamiyati shaklining huquqiy tartibga solinishi boshqa kompaniya shakllari bilan qiyosiy o'rganilib, huquqiy tahlil qilingan. Ushbu huquqiy shaklning ayrim asosiy elementlarining jozibadorligi ommaviy ma'lumotlar bazasi asosida amalga oshirilgan empirik-statistik metod yordamida tekshirib chiqilgan. Shuningdek, ushbu yangi huquqiy shaklni joriy etish orqali qonunchilik tashabbuskorlari belgilagan maqsadlar qay darajada amalga oshirilgani yuzasidan baholash ham taqdim etilgan[10].



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish strategiyalari tahlilida adabiyotlar tahlili, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda iqtisodiy indikatorlardan foydalanilgan. Shuningdek, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, sintez va induktiv-detuktiv usullar tadqiqotda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning samarali faoliyati innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini keng joriy etishga bevosita bog'liq. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda innovatsiyalar AJlarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash, bozordagi ulushini kengaytirish va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Innovatsion usullarni joriy etish jarayoni bir nechta yo'nalishlardan iborat:

1. Tashkiliy-innovatsion choralar – korporativ boshqaruv tizimini raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil qilish, elektron hujjat aylanmasi, masofaviy hamkorlik platformalarini joriy etish, qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish.

2. Iqtisodiy jihatlar – innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish, NPV va IRR kabi ko'rsatkichlar orqali investitsion samaradorlikni baholash, innovatsiyalarning iqtisodiy qaytarimi va rentabelligini ta'minlash.

3. Huquqiy jihatlar – intellektual mulk huquqini himoya qilish, korporativ qonunchilikni takomillashtirish, xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish, innovatsiyalarga oid normativ-huquqiy bazani yangilash.

4. Ijtimoiy-kadrlar siyosati – innovatsion usullarni joriy etishda malakali mutaxassislar tayyorlash, xodimlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish, korporativ madaniyatda innovatsion fikrlashni rivojlantirish.

5. Texnologik yo'nalishlar – sanoat 4.0 talablariga mos ravishda raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt va "Big Data" texnologiyalarini qo'llash.

Innovatsion usullarning samarali joriy etilishi aksiyadorlik jamiyatlariga quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

- Mahsulot va xizmatlar sifati oshishi;
- Ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish;
- Xorijiy va mahalliy bozorlarda raqobatbardoshlikning kuchayishi;
- Korporativ boshqaruvning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- Investitsiyaviy jozibadorlikning oshishi.

Shu bois, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion usullarni joriy etish nafaqat alohida korxonaning rivojlanishi, balki umummilliy iqtisodiy o'sishning barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Tashkiliy jihatlarning tahlili. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyat samaradorligi avvalo boshqaruv tizimining innovatsiyani qo'llab-quvvatlash darajasi va uning amaldagi tashkiliy imkoniyatlariga bevosita bog'liq. Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida innovatsiyani rivojlantirish yo'nalishi korxonaning strategik maqsadlariga integratsiya qilinishi, uning uzoq muddatli barqarorlik va raqobatbardoshlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida quyidagi asosiy tashkiliy omillar alohida ahamiyatga ega:

• Innovatsion boshqaruv strategiyalarining mavjudligi va ularni amalga oshirish mexanizmlari. Korxonaning rivojlanish strategiyasida innovatsiyaga alohida ustuvorlik berilsa, bu investitsiyalarni jalb qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va yangi mahsulotlar yaratish uchun mustahkam asos yaratadi. Strategiyaning mavjudligi innovatsiya jarayonlarini tizimli va maqsadli tarzda yo'naltirishga imkon beradi.

• Xodimlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish. Innovatsiyaning asosiy drayverlaridan biri bu inson kapitali hisoblanadi. Korxonalarda xodimlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirish jarayonlari innovatsion g'oyalarni soni va sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

• Axborot va kommunikatsiya tizimlarining samaradorligi. Tashkilotda ma'lumot almashish jarayonlari tezkor va shaffof bo'lsa, innovatsion g'oyalarni tezkorlik bilan muhokama qilinishi, amaliyotga joriy etilishi mumkin. Shu bois korporativ axborot platformalari va raqamli kommunikatsiya kanallarining rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega.

• Innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etish uchun motivatsiya mexanizmlari. Har qanday innovatsiya tashabbusini amalga oshirishda xodimlar va rahbariyat o'rtasida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi katta ahamiyatga ega. Bu bonuslar, aksiyalar paketlarida ishtirok etish imkoniyatlari, karyera o'sishi yoki e'tirof etish tizimi ko'rinishida bo'lishi mumkin.



Shu jihatdan, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion faoliyatni tashkil etishda tashkiliy omillar tizimli yondashuv asosida shakllantirilishi lozim, ya'ni korporativ strategiya, inson kapitali, axborot tizimi va motivatsiya mexanizmlari bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlantirilishi shart (1-jadval).

#### 1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarida tashkiliy jihatlarining innovatsiyaga ta'siri<sup>1</sup>

Tashkiliy omillar	Ta'sir yo'nalishi	Tavsiyalar
Boshqaruv strukturasi	Innovatsiyani qo'llab-quvvatlash	Loyiha asosida boshqaruvni joriy etish
Xodimlar malakasi	Yangi g'oyalar salohiyati	Ta'lim va qayta tayyorlash dasturlari
Axborot almashinuv tizimi	Qaror qabul qilish tezligi	ERP va CRM platformalarini joriy etish
Ichki motivatsiya siyosati	Innovatsiyaga qiziqish	Raqobatbardosh bonus tizimi

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiyalarni samarali joriy etishda korporativ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va xodimlarning malakasini oshirish eng muhim omillar hisoblanadi. Korporativ boshqaruvning samaradorligi innovatsiya jarayonlarini strategik yo'naltirish va resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Shuningdek, korporativ madaniyat va ichki kommunikatsiyaning rivojlanganligi innovatsiyaga yo'naltirilgan tashkilot muhitini shakllantiradi. Shu bois, aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy muhit yaratish strategik ahamiyatga ega.

2. Iqtisodiy jihatlarining tahlili. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiyalarni joriy etish jarayonida iqtisodiy jihatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki innovatsion faoliyatning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy barqarorlik, investitsion resurslarni jalb qilish imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy jihatni tahlil qilish quyidagi yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari. Innovatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy resurslar turli manbalardan shakllantirilishi mumkin: ichki moliyaviy zaxiralar (korxonaning sof foydasi, amortizatsion mablag'lar), tashqi investitsiyalar (bank kreditlari, aksiyalar chiqarish, venchur kapitali) va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash dasturlari. Har bir manbaning samaradorligi uning qo'llanish shartlari va xarajatlar tuzilishi bilan belgilanadi.

- Investitsion risklarni baholash va boshqarish. Innovatsion loyihalar ko'p hollarda yuqori tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Shu bois, moliyaviy risklarni aniqlash, ularning ehtimoliy ta'sirini baholash va ularni minimallashtirish bo'yicha tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda diversifikatsiya strategiyalari, risklarni sug'urtalash va innovatsion portfollarni optimallashtirish usullari qo'llaniladi.

- Innovatsiyadan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni baholash. Innovatsiyalarni joriy etishning moliyaviy natijalarini aniqlash uchun iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Ular qatoriga investitsiyalarning ichki daromad normasi (IRR), to'lov muddati (Payback Period), sof hozirgi qiymat (NPV) va investitsiyalar rentabellik koeffitsiyenti (ROI) kiradi. Bu ko'rsatkichlar orqali innovatsion faoliyatning iqtisodiy maqbulligi va korxonaning daromadlilik salohiyati baholanadi.

Shu tariqa, iqtisodiy jihatlarining to'g'ri tashkil etilishi aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiyalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va kapital bozorlaridagi nufuzni mustahkamlash imkonini beradi (2-jadval).

#### 2-jadval. Innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ularning ustuvorlik darajasi<sup>2</sup>

Moliyalashtirish manbai	Ustuvorlik darajasi (%)	Izoh
Aksiyadorlar mablag'lari	35	Asosiy ichki manba
Bank kreditlari	25	Ortiqcha qarz yuklamasi xavfi mavjud
Davlat subsidiyalari	20	Iqtisodiy siyosatga bog'liq
Xorijiy investitsiyalar	15	Raqobatbardosh loyihalarda muhim
Venchur kapital	5	Startaplar uchun mos

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari sifatida aksiyadorlar hissalarini, bank kreditlari va venchur kapitali ajralib turadi. Har bir moliyalashtirish mexanizmidagi xavf-xatar darajasi turlicha: masalan, bank kreditlari past likvidli aktivlarga ega korxonalar uchun yuqori tavakkalchilikni yuzaga keltirsa, venchur kapitali startaplar uchun katta imkoniyat yaratadi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda NPV (Net Present Value) va IRR (Internal Rate of Return) kabi ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi, chunki ular investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini aniq ko'rsatadi.

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Iqtisodiy samaradorlikni baholashda NPV va IRR ko'rsatkichlari. Innovatsion loyihalarning moliyaviy samaradorligini aniqlashda NPV (Net Present Value) va IRR (Internal Rate of Return) ko'rsatkichlari eng ishonchli va keng qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlardan hisoblanadi. Ular investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

#### 1. Net Present Value (NPV)

Formula:

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+r)^t} - I_0$$

Bu yerda:

- $CF_t$  – t-yildagi naqd pul oqimi;
- $r$  – diskont stavkasi (ko'zda tutilgan foiz yoki kapital qiymati);
- $t$  – hisob davri;
- $I_0$  – бошланғич инвестиция ҳажми;
- $n$  – loyiha davomiyligi (yillar soni).

**Misol:** Agar loyihaga boshlang'ich investitsiya sifatida **100 000 000 so'm** yo'naltirilsa, va kutilgan naqd pul oqimi quyidagicha bo'lsa:

- 1-yil: 40 000 000 so'm
- 2-yil: 50 000 000 so'm
- 3-yil: 60 000 000 so'm

Diskont stavkasi:  $r=15\%$ .

$$NPV = \frac{40\,000\,000}{(1+0.15)^1} + \frac{50\,000\,000}{(1+0.15)^1} + \frac{60\,000\,000}{(1+0.15)^1} - 100\,000\,000$$

Hisoblaymiz:

$$NPV = 34\,782\,609 + 37\,808\,641 + 39\,463\,056 - 100\,000\,000$$

$$NPV = 112\,054\,306 - 100\,000\,000 = 12\,054\,306$$

Xulosa: NPV > 0 bo'lgani uchun loyiha iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi.

#### 2. Internal Rate of Return (IRR)

IRR – bu loyihaning NPV qiymati 0 ga teng bo'ladigan diskont stavkasi:

$$0 = \sum_{t=1}^N \frac{CF_t}{(1+IRR)^t} - I_0$$

Misol: Agar yuqoridagi naqd pul oqimlari uchun IRR = 21% chiqsa, bu shunday anglatadi:

– Agar kapital qiymati (WACC) 15% bo'lsa va IRR > 15% bo'lsa, loyiha qabul qilinadi.

– Agar IRR < kapital qiymati bo'lsa, loyiha rad etiladi.

Xulosa: NPV – absolyut qiymatda loyihaga qo'shiladigan qiymatni ko'rsatsa, IRR – loyihaning ichki foiz me'yorini ifodalaydi. Innovatsion loyihalarda ikkala ko'rsatkichni ham qo'llash tavsiya etiladi, chunki ular birgalikda investitsiyalarning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligini baholash imkonini beradi.

3. Huquqiy jihatlar tahlili. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion usullarni joriy etish jarayonida huquqiy jihatlar muhim o'rin tutadi, chunki huquqiy asoslar innovatsiya faoliyatining qonuniyligi, barqarorligi va investitsion jozibadorligini ta'minlaydi. Bu jihatlar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilinadi:

Intellectual mulk huquqini himoya qilish. Innovatsiya jarayonida yaratilgan ixtirolar, nou-xau, patentlar, savdo belgilari va boshqa intellektual mahsulotlar qonuniy himoyaga ega bo'lishi zarur. Bu orqali aksiyadorlik jamiyati innovatsion yechimlarning nusxa ko'chirishdan himoyalaniishi va ulardan daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Innovatsiyaga oid korporativ qonunchilikni takomillashtirish. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda mavjud korporativ boshqaruv va investitsiya qonunchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi normativ-huquqiy bazani tahlil qilish, mavjud to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish innovatsiyalarning samarali amalga oshirilishi uchun shart-sharoit yaratadi.



Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish. Innovatsion loyihalarda ko'p hollarda xorijiy investitsiyalar ishtirok etadi. Shu bois, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilish, soliq imtiyozlari, shartnoma munosabatlarining shaffofligi va sud himoyasi mexanizmlarini ta'minlash juda muhimdir.

Shuningdek, huquqiy jihatlar innovatsion muhitni barqaror rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsiyalarga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi (3-jadval).

### 3-jadval. Innovatsion jarayonlarning huquqiy asoslariga ta'sir etuvchi omillar<sup>3</sup>

Huquqiy omillar	Muammo darajasi	Tavsiyalar
Intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish tizimi	O'rta	Yagona elektron platforma joriy etish
Litsenziyalash va patentlash	Yuqori	Tezkor onlayn-patentlash mexanizmi
Xorijiy investitsiya shartnomalari	O'rta	Xalqaro standartlarga moslashtirish

Jadvalda keltirilgan huquqiy omillardan ko'rinib turibdiki, innovatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun intellektual mulkni himoya qilish, patentlash jarayonlarini soddalashtirish va qonunchilikni takomillashtirish muhimdir. Xususan, innovatsiyaga oid litsenziyalash va patentlashning shaffof tizimi aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatida huquqiy xavflarni kamaytiradi.

Shuningdek, korporativ qonunchilikda innovatsiyaga oid alohida moddalarning mavjudligi korxonalarda huquqiy aniqlik va kafolatni ta'minlaydi.

Jadvallardagi tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni o'zaro uyg'unlashtirish zarur. Buning uchun:

- Korporativ boshqaruv tizimi innovatsiyaga yo'naltirilishi,
- Moliyalashtirishda diversifikatsiyalangan manbalardan foydalanilishi,
- Intellektual mulkni himoya qiluvchi qonunchilik takomillashtirilishi talab etiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion usullarni joriy etish samaradorligi ushbu uch jihat — tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy omillarni uyg'unlashtirishga bog'liq. Agar ushbu yo'nalishlar birgalikda samarali boshqarilsa, aksiyadorlik jamiyatlari raqamli transformatsiyaga tezroq moslashadi, bozorda raqobatbardoshligini oshiradi va investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion usullarni joriy etish jarayoni kompleks va ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, uning samaradorligi tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarning uyg'un rivojlanishiga bog'liq. Innovatsiyalarning to'g'ri yo'naltirilgan siyosati aksiyadorlik jamiyatlariga nafaqat ichki raqobatbardoshlikni oshirish, balki xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatini ham yaratadi.

Tashkiliy jihatlar bo'yicha korporativ boshqaruvning innovatsiyaga yo'naltirilgan strategiyalari mavjudligi innovatsion faoliyatning uzluksizligini ta'minlaydi. Xodimlar malakasini oshirish va ijodiy salohiyatni rivojlantirish innovatsiyalarning amaliy qiymatini oshiradi. Axborot va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda tezkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

Iqtisodiy jihatlar bo'yicha innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda diversifikatsiyalangan manbalardan foydalanish (aksiyadorlar mablag'lari, bank kreditlari, venchur kapital va davlat subsidiyalari) risklarni kamaytiradi. NPV va IRR kabi ko'rsatkichlar investitsiyalarning uzoq muddatli rentabelligini baholashda ishonchli instrumentlardir. Risklarni baholash va boshqarishning ilg'or mexanizmlari innovatsiyalarning barqaror amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Huquqiy jihatlar bo'yicha intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish innovatsion yechimlarning tijoriy qiymatini oshiradi. Korporativ qonunchilikda innovatsiyalarga oid moddalarni kuchaytirish innovatsiya jarayonlarini qonuniy asosda rivojlantirish imkonini beradi. Xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni ta'minlash investitsiyaviy muhitni yanada jozibali qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlariga innovatsion usullarni joriy etishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari bo'yicha takliflar: Korporativ boshqaruv sohasida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun loyiha asosida boshqaruv tizimini joriy etish. Innovatsiya bo'yicha maxsus departamentlar yoki qo'mitalar tashkil etish.

Iqtisodiy sohada innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun aralash (public-private) sheriklik modellarini kengaytirish. Xorijiy va mahalliy investorlar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar tizimini takomillashtirish.

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Huquqiy sohada intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazishda yagona elektron platformani joriy etish. Litsenziyalash va patentlash jarayonlarini soddalashtirish orqali innovatsion startaplar uchun huquqiy to'siqlarni kamaytirish.

Ijtimoiy va kadrlar siyosati bo'yicha xodimlar uchun innovatsiyalarga yo'naltirilgan malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish. Innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish uchun aksiyadorlik bonuslari va karyera o'sishi imkoniyatlarini yaratish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish aksiyadorlik jamiyatlariga raqamli transformatsiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RBQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» farmoni, 2022 yil 28 yanvar, ПФ-60.[www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Makhmudov S. B. et al. Reforming Organizational Structures and Economic Mechanisms in Corporate Management: Case Studies From Large Joint-Stock Companies //American Journal of Corporate Management. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 83-93.
4. Makhmudov, S. B., & Ismailov, A. R. (2024). The Importance of Strategic Corporate Management Practices in Joint-Stock Companies in the Capital Market. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT, 3(9), 254-265.
5. Aguilera R. V. et al. An organizational approach to comparative corporate governance: Costs, contingencies, and complementarities //Organization science. – 2008. – T. 19. – №. 3. – C. 475-492.
6. Walsh J. P., Seward J. K. On the efficiency of internal and external corporate control mechanisms //Academy of management review. – 1990. – T. 15. – №. 3. – C. 421-458.
7. Awoyemi, Olanrewaju, et al. "Revolutionizing corporate governance: A framework for solving leadership inefficiencies in entrepreneurial and small business organizations." International Journal of Multidisciplinary Research Updates 6.1 (2023): 45-52.
8. Рудяк, Елена Васильевна. «Правовое регулирование деятельности органов акционерных обществ в процессе реорганизации.» (2009): 43.
9. Чичеров, И. В. (2024). Оптимизация инвестиционной политики акционерных обществ в условиях цифровизации экономики. Journal of Monetary Economics and Management, (10), 196-202.
10. Patakyová, Mária, et al. "Slovak Simple Joint Stock Company—Critical Review and Preliminary Assessment." European Company and Financial Law Review 17.2 (2020): 205-230.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)